

Yantoq o'simligining ahamiyatatlari

Jumayeva Zulfizarbonu

Termiz davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti

Annotatsiya: Quyoshli zaminimiz tuprog'ida unib o'sayotgan turli tuman dorivor hamda xom ashyo sifatida yetishtirilgan o'simliklar tabiatimiz boyligi sanaladi.Bu o'simlik sirasiga yantoq (Alhagi) ham kiradi.Bu o'simlik dukkakdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik begona o't hisoblanadi dasht cho'llarda ko'p uchratishimiz mumkin.Ildizi kuchli rivojlangan bo'lib asosan yer osti suvlaridan foydalanadi.

Kalit so'zlar: Alhagi, karotin, vitamin C B2 K, organik kislota manna,trisaxarid,saponin,alkaloidlar,oshlovchi moddalar,shakar rutin.

Yantoq o'simligi haqida:

Yantoq(Alhagi) dukkakdoshlar Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik begona o't.Bo'yi 30 130 sm bo'ladigan o't o'simlik.Poyasi tik o'suvchi tikanli pastki tomoni yog'ochlashgan ,pastki tikanlari kalta va qattiq ,yuqoridagilari uzun va yumshoq.Poyasi shoxlangan.Barglari lansetsimon ellipsimon yoki keng teskari tuxumsimon bo'lib qisqa bandi yordamida poya va shoxlarida ketma-ket joylashadi.Binafsha pushti yoki qizil rangli besh bo'lakli gullari 2-7 tadan tikanlariga joylashgan.Mevasi tasbexsimon 10tagacha urug' bo'lgan dukkak.May sentabr oylarida gullaydi ,mevasi avgust oktabrda yetiladi.Sobit ittifoq ,yevropa qismining janubi sharqiy tumanlarida kavkaz O'rta osiyo tekisliklarida daryo ,kanal ,yo'l bo'ylarida nam qumli shag'alli yerlarda o'sadi. Yantoq turlarining yer ustki qismi tarkibida saponinlar 0.3% ursol kislota 1.3% 90% flavonoidlar rutin kvertsimetitrin va izoramnetin glikozoidlar 0.11%. 0.19%kumarinlar 0.33% 0.87%efir moylari vitaminlar C B2 K karotin organik kislota ,qandlar 8.6-9.2%shilliq oshlovchi va ildizida 0.19% alkaloidlar saponinlar 2.7%organik kislotalar C B guruh vitaminlari 3.9-6.65% oshlovchi moddalar bor.Shakar yantoq avgust sentabr oylarida o'zidan shirin suyuqlik chiqaradi 2-3kundan so'ng suyuqlik qotib qand zarrachasi mannaga aylanadi.Manna tarkibida 5.5% suv 1.9% yelim 49.9%-50.6% trisaxarid va boshqa moddalar bor.Yevropa qismidagi chala cho'l rayonlarida 5turi ma'lum.O'zbekistonda yantoqning soxta yantoq va qirliz yantog'i turi o'sadi. Yantoqning hamma turi tuyachilik va qo'ychilikda yaxshi ozuqa hisoblanadi.Yantoqdan yuqori sifatli yem xashak silos va oziq uni olinadi.O'tin sifatida ham foydalaniladi.Yantoq yaxshi asal beruvchi o'simlik.

Dorivorlik xususiyati:

Dorivorlik xususiyatiga ko‘ra yantoqning 4ta turi ishlataladi.Qirg‘iz yantog‘i-kirghisorum soxta yantoq-pseudolhagi shakar yantoq-persirum Boiss et Buhse siydk barg yantoq -sponisifolia Shap. Xalq tabobatida yantoq turlarining yer ustki qismi va ildizi ishlataladi.Yer ustki qismi o‘simlik gullagan vaqtida o‘rib olinadigan va soya yerda quritiladi.Yantoqning yer ustki qismidan tayyorlangan damlamani yo‘talni qoldirish uchun hamda terlatuvchi dori sifatida ishlataladi.Ildizidan tayyorlangan qaynatma ichdan qon oqishini to‘xtatishda ,bakteriostatik,siydk va o‘t haydaydigan jarohatlar bitishida yordam beradi.

Yantoqni sharbat oshqozon ichak kasalliklarida foydalaniladi.Yantoq infeksion oshqozon ichak trakti kasalliklarini davolash uchun ishlataladi.Yantoq och qoringa iste’mol qilinsa ,ich ketishini kuchaytiradi.O‘tkir og‘iz kasalliklarida ham yantoq damlamasini chayqab turishni ham foydasi bor,og‘iz bo‘shlig‘ining turli xil yallig‘lanishini davolashda ishlataladi.Yiringli otit bilan og‘rigan bemorlarga yantoq tomirini damlama qilib iste’mol qilinsa,bachardon bo‘yni eroziyasi bilan og‘rigan bemorlarga tavsiya qilsa bo‘ladi.Yantoq sovuqqonlik uchun diafotik antipiretik sifatida ishlatish mumkin,terining yiringli shikastlanishida, jarohatlar,kuyishlarda qo‘llaniladi.Gemmoroyni davolashda ham ishlatish mumkin.

Yantoq asali:

Yantoq asali-bu tuya tikanli yantoq gullaridan yig‘iladigan asal turi hisoblanadi.Yantoq asali juda kam uchraydigan va tozalangan asal navidir.U zaif hidi bilan yoqimli va nozik tamga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asfandyorov, Javodbek, et al. "SYPHILIS (DISEASE), ITS SYMPTOMS AND PRIMARY CONSEQUENCES." International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research 2.10 (2022): 10-11.
2. Tashboltayevna, Ahmedova Saodat, Asfandiyorov Javodbek Mirzaali o‘g‘li, and Odilov Ramziddin Dilshod o‘g‘li. "Xushvaqtova Osiyo Asadulla qizi, & Rashidova Farangiz Musulmon qizi.(2022). LEISHMANIOSIS DISEASE, ITS SYMPTOMS, PRIMARY CONSEQUENCES AND DISTRIBUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10 (12), 836–838."
3. Asfandiyorov, Javodbek, et al. "OSTEOPOROSIS AND ITS PREVENTION." Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences 3.1 (2023): 139-142.

4. o'g'li, AJM ., Xushvaqtov , XIS o'g'li, qizi, SSI ., o'g'li, SXE ., & qizi, SMZ . (2022). JIRRAJYATNING ESTETIK TURLARI, PLASTIK JARROZIYa. EVROPA ZAMONAVIY TIBBIYOT VA AMALIYOT JURNALI, 2 (10), 143–144. <http://www.inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/1231>
5. Abdukamol qizi, NZ, Raxmat qizi, SX, Alisher o'g'li, AA, Raxmon o'g'li, AM, & Mirzaali o'g'li, AJ (2022). Kardiojarrohlik haqida. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 3 (5), 694-696.
6. Mirzaali o'g'li A. J. et al. TERMINAL CASES LUNG AND HEART RESUSCITATION TRANSFER PRINCIPLES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 10. – C. 729-731.
7. Mirzaali o'g'li, Asfandiyorov Javodbek, et al. "ANESTHESIA AND ITS GENERAL CHARACTERISTICS." Gospodarka i Innowacje. 28 (2022): 191-192.
8. Mirzaali o'g'li, Asfandiyorov Javodbek, et al. "Importance of medical prevention in medicine." Texas Journal of Medical Science 13 (2022): 175-176.
9. Choriyeva, Z., Asfandyorov, J., Aminova, M., Tojiddinov, D., & Bozorova, G. Z. (2022). KIDNEY ANATOMY, PATHOLOGY AND KIDNEY DISEASES: INFORMATION ABOUT NEPHRITIS. Академические исследования в современной науке, 1(15), 67-69.
10. Mirzaali o'g'li, Asfandiyorov Javodbek, et al. "Liver Anatomy, Histology And Physiology." Intellectual Education Technological Solutions And Innovative Digital Tools 1.11 (2022): 8-11.
11. Mirzaali o'g'li A. J. et al. Liver Structure and Functions, Hepatocytes Information About //American Journal of Economics and Business Management. – 2022. – T. 5. – №. 11. – C. 215-216.
12. Asfandyorov, Javodbek, et al. "Cardiovascular diseases. Hypertension and hypertenric crisis." Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences 2.11 (2022): 209-210.